

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV FAOLIYAT  
JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK METODIKALARDAN  
FOYDALANISHNING AFZALIKLARI**

**Kamolova Azimaxon Odiljon qizi**

*Namangan davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va  
tarix kafedrasи o'qituvchisi*

**Rahomjonova Nozanin Abdurasul qizi**

*Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Kalit so'zlar :** Pedagogik mahorat, barkamol avlod, bilimdonlik, Pedagogika va psixologiya, dars mashg'uloti, Pedagog, pedagog kadrlar, o'qitish uslubiyatini, ta'lif tarbiya jarayonlarini, qiziqishlari, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi.

**Keywords:** Pedagogical skill, mature generation, knowledge, Pedagogy and psychology, lesson training, Pedagogue, pedagogic personnel, teaching methodology, educational processes, interests, cooperation between teacher and student.

**Annotatsiya :** Mamlakatimizning kelajagini taminlash yo'lidagi ilk qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lif tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalar darajasiga chiqarish maqsadida ta'lif tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda, mana shunday vazifalarni bajarishda pedaoglar interaktiv va pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ishlari lozim.

**Annotation:** From the first steps towards securing the future of our country, to restore and further improve our great spirituality, to improve the national education system, to strengthen its national ground, to bring it up to the level of world standards and skills based on the harmonization with the requirements of the times. huge creative works are being carried out in the lim system, and in the performance of such tasks, pedagogues should have the ability to use interactive and pedagogical technologies in their place.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir Qarorda barkamol avlod tarbiyasi va ularning kasbiy mahoratini avvalo ta'lif muassasalarida oshirib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Har bir ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedaoglar ushbu muammolarning yechimini topishda “Pedagogik mahorat” fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog yani ta'lif muassasasida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi “O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan,

tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis" bo'lishi kerak. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim jarayonini tashkil etishdagi faoliyatini quyudagi tushunchalar orqali mazmunan izohlash mumkin:

- Madaniyatning yuqori darjasи, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
- O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
- Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
- O'quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi

Hozirgi rivojlangan jamiyatda yoshlarni ta'lim tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish maqsadida pedagog kadrlar tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy faoliyatlarni bialogiya fanlarini o'qitish jarayonlarida ko'rib chiqamiz. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish ta'lim sifatini eng yaxshi darajaga olib chiqishdagi amalga oshiriladigan faoliyatlarni amaliy ko'rib chiqamiz. O'tiladigan dars mashg'ulotlarini yanada qiziqarli qilib o'tkazish uchun turli xil metodikalardan foydalanib dars sifatini taminlashimiz mumkin. Misol uchun umumiy o'rta ta'lim muasasasi o'quvchilarining dars mashg'ulotini tashkil etishdagi qiziqishlarini, xohishlarini aniqlash uchun dars mashg'uloti avvalida "Kutuvlar daraxti" metodini o'tkazish orqali o'quvchilarni bu dars mashg'ulotidan nimani qanday jarayonlarni kutayotganliklarini aniqlash mumkin.

Bu metodikani o'tkazish jarayonida fan o'qituvchisi doskaga avvaldan tayyorlab qo'yilgan daraxt rasmini iladi. O'quvchilarga turli xil shakldagi stikrlarga bugungi darsni qanday tartibda o'tilishini va mahg'ulotdan nimalarni kutayotganliklarni , dars jarayoni qanday o'tishini hoxlashayotganliklarini yozib, daraxtga stikrlarni o'zları xoxlayotgan qismiga yopishtirishlari to'g'risida topshiriq beriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi o'z maxoratini ishga solgan xolda dars jarayonini tashkil etadi. Dars mashg'uloti tashkil etish davomida o'qituvchi dars jarayonlarida o'quvchilarni faolikka va xarakatga mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kerak. Dars mashg'uloti so'ngida har bir o'quvchi draxtga chiqib o'z stikrlarini topib o'qiydi va bugungi darsni o'zo xoxlagandek o'tilganligini tahlil qiladi. Agarda o'quvchi kutgan dars jarayonlari tashkil etilmagan bo'lsa, o'quvchilar guruhdagi boshqa o'quvchilar bilan o'z fikrlarini birgalikda muhokama qilishadi. Bu jarayonda o'qituvchi har bir bola darsni qanday tashkil etilishini istayotganligini tahlil qilib boradi. O'quvhilarni qiziqtirgan savvolga o'zning yakuiy xulosasi bilan dars mashg'ulotini yakunlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamizki bu metodika orqali o'qituvchi o'quvchilarni -dars mashg'uloti jarayonlarida va mashg'ulot oxirida o'quvchilar o'z kutuvlarini qay darajada olganliklarini va dars mashg'uloti qay darajada tashkil

etilganligini aniqlab olishi mumkin. Qo'llanilayotgan metodikamizning afzallik tomoni shundaki o'qituvchi har bir o'quvchini qiziqishlari, xohishlarini bilib olishi va xar bir qiziqish va xoxishlarini inobatga olgan holda keying dars mashg'ulotlariga tayyorlanib, dars mashg'ulotini mazmunli tashkil etishi mumkin. Mamlakatimizning kelajagini taminlash yo'lidagi ilk qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda, mana shunday vazifalarni bajarishda pedaoglar interaktiv va pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnila foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ishlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2010–312 b.
2. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. - 425 b.
3. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya. 2012-yil.
- 4 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
- 5 Kamolova A.O “the role of game technologyin the formation of organizational qualities general secondary school students. Eurasian journal of academic research. Volume 1 , Issue 01. ISSN 2181-2020 15 April 2021. 154-156 betlar